

**LEKSEMALAR MA'NO MUNDARIJASIDAGI DOLZABR SEMALAR  
XUSUSIDA**

*Nasirov Muslimjon Maxsutali-o'g'li*

*Qo'qon universiteti, Filologiya kafedrası o'qituvchi, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillarida relevant (dolzarb) hamda irrelevant (nozarus) semalarni o'rganishga bag'ishlangan. Relevant semalar so'zning asosiy ma'nosini belgilab, uning mazmunini shakllantirsa, irrelevant semalar kontekstga bog'liq holda qo'shimcha yoki ikkinchi darajali ma'lumotlarni ifodalaydi. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida semalarning lug'aviy, kontekstual va pragmatik ko'rinishlari tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *ma'no, semasiologiya, denotativ ma'no, ma'no mundariyasi, ma'no ko'lami, relevant ma'no, irrelevant ma'no, komponent tahlil.*

**Annotation.** *This article is devoted to the study of relevant and irrelevant semes in the English and Uzbek languages. Relevant semes determine the core meaning of a word and play a fundamental role in shaping its semantic content, whereas irrelevant semes express additional or secondary information that depends on the context. The article analyzes the lexical, contextual, and pragmatic manifestations of semes in both English and Uzbek languages.*

**Keywords:** *meaning, semasiology, denotative meaning, semantic content, scope of meaning, relevant meaning, irrelevant meaning, componential analysis.*

Har bir tilning o'ziga xos boyligi va qudrati uning ma'nolar dunyosida namoyon bo'ladi. So'zlar nafaqat aloqa vositasi, balki inson fikri va hissiyotlarini ifodalovchi boy semantik sistemadir. Ma'no – bu so'z yoki iboraning ichki mazmuni, uning ifoda qilayotgan mazmun-mohiyatidir. U tilda turli shakllarda, jumladan, lingvistik, semantik va kontekstual ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Mazmunni anglash va uni talqin qilish ko'p hollarda sharoitga, madaniy muhitga va til ishlatilishining maqsadiga bog'liq. Shu boisdan ham ma'no turli talqinlarda, xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada ma'no tushunchasi, xususan, relevant va irrelevant ma'nolar ingliz va o'zbek tillaridan olingan misollar orqali o'rganilgan hamda ularning ahamiyati chuqur tahlil qilingan.



O‘zbek tilida ma’no va uning turlari haqidagi ilmiy tadqiqotlar tilshunoslikning semasiologiya (semantika) bo‘limida keng yoritilgan. Ma’no va uning turlari masalasi o‘zbek tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab chuqur o‘rganila boshlandi. Ushbu sohada bir nechta muhim yo‘nalishlar va olimlarning hissasi mavjud:

O‘zbek tilida ma’no va uning turlari lingvistik jihatdan yaxshi o‘rganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Biroq bu borada hali tadqiq qilish uchun keng imkoniyatlar mavjud. O‘zbek tilida lug‘aviy ma’no, ya’ni so‘zning asosiy ma’nosi bo‘yicha yetarli tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbek tili lug‘atlari, xususan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” kabi manbalarda so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi batafsil keltirilgan. Bunda so‘zning asosiy va qo‘shimcha ma’nolari o‘zaro taqqoslanib, izohlab berilgan.

Ko‘chma va obrazli ma’nolar tilning badiiy va hissiy boyligini ochib beradi. O‘zbek adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, va Cho‘lpon ijodida bu ma’nolarni o‘rganishning boy namunalarini uchratish mumkin. Badiiy tilshunoslik doirasida ko‘chma ma’no, metaforalar va boshqa stilistik vositalar alohida o‘rganilgan. Ammo bu soha hali ham rivojlanish bosqichida bo‘lib, yangi asarlar va zamonaviy tilshunoslik metodlaridan foydalanish talab qilinadi.

So‘zlarning semantik maydoni va ularning o‘zaro aloqalari o‘zbek tilshunosligida nisbatan yaqinda ilmiy izlanishlarning diqqat markaziga kirdi. So‘zning turli kontekstlardagi semantik o‘zgarishlari, antonimiya, sinonimiya va polisemiyaning xususiyatlari haqida ilmiy maqolalar va tadqiqotlar mavjud.

Kontekstual ma’no haqida ham muhim ishlar olib borilgan. Bir so‘z turli kontekstlarda har xil ma’nolarni ifodalashi mumkinligi o‘zbek tilida keng o‘rganilgan mavzudir. Biroq bu soha yanada chuqurroq semantik tahlil va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda rivojlantirilishi mumkin.

O‘zbek tilida ma’noni o‘rganishda pragmatik yondashuv, ya’ni ma’no va vaziyat o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilish hali yetarlicha rivojlanmagan. Tilning interaktiv va amaliy jihatlarini o‘rganish bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar talab etiladi.

Quyida ma’no turlaridan yana biri hisoblangan relevant hamda irrelevant ma’nolar ingliz va o‘zbek tillari misolida tahlil qilamiz.

1. Ingliz tilidagi [aunt] leksemasining sememasi “qarindosh”, “qon-qarindosh” atash semalariga ega. O‘zbek tilidagi [amma] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda “ota tomon” relevant semasi ham bor. Chunki [amma] leksemasi shu semasi bilan [xola] leksemasiga qarama-qarshi turadi. [Amma] leksemasiga shu sema bilan qarshilanuvchi birlik yo‘q, shu boisdan unda noaniq tabiatli “Otaning opasi yoki



singlisi/ onaning opasi yoki singlisi” semasi mavjud bolib, u noaniq bolganligi sababli irrelevantdir.

2. Ingliz tilidagi [game] leksemasining sememasi “o‘yin, musobaqa” atash semalariga ega. O‘zbek tilidagi [o‘yin] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda “Ko‘ngil ochish, dam olish, tarbiyalash maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg‘ulot” relevant semasi ham bor. Chunki [o‘yin] leksemasi shu semasi bilan [musobaqa] leksemasiga qarama-qarshi turadi. [Game] leksemasiga shu sema bilan qarshilanuvchi birlik yo‘q, shu boisdan unda noaniq tabiatli “ko‘ngilochish dam olish uchun qilinadigan biron bir harakat(umumiy)/bellashuv musobaqa” semasi mavjud bolib, u noaniq bolganligi sababli irrelevantdir.

3. Ingliz tilidagi [sibling] leksemasining sememasi “tug‘ishgan qarindosh”, “qon-qarindosh”, “bevosita” atash semalariga ega. O‘zbek tilidagi [aka-uka] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda “mendan katta yoki mendan kichik” relevant semasi ham bor. Chunki [aka-uka] leksemasi shu semasi bilan [opa-singil] leksemasiga qarama-qarshi turadi. [Aka-uka] leksemasiga shu sema bilan qarshilanuvchi birlik yo‘q, shu boisdan unda noaniq tabiatli “mendan katta/mendan kichik qon qarindosh” semasi mavjud bolib, u noaniq bolganligi sababli irrelevantdir.

4. Ingliz tilidagi [parent] leksemasining sememasi “padar, dunyoga keltirgan”, “qon-qarindosh”, “bevosita” atash semalariga ega. O‘zbek tilidagi [ota] leksemasida esa bu sema bilan birgalikda “biologik ota yoki biologik ona” relevant semasi ham bor. Chunki [ota] leksemasi shu semasi bilan [ona] leksemasiga qarama-qarshi turadi. [ota] leksemasiga shu sema bilan qarshilanuvchi birlik yo‘q, shu boisdan unda noaniq tabiatli “ota,padar/ biologik dunyoga keltirgan ona” semasi mavjud bolib, u noaniq bolganligi sababli irrelevantdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida ma’no va uning turlari bo‘yicha ancha ishlar qilingan bo‘lsa-da, zamonaviy talab va imkoniyatlarga javob beradigan ko‘plab mavzular ochiq qolmoqda. Ayniqsa, tilning pragmatik va kognitiv aspektlari, so‘zlarning qo‘llanishi va ularning madaniy konnotatsiyalarini o‘rganish bo‘yicha yangi izlanishlar yetishmaydi. Bu borada ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, xorijiy tajribani o‘rganish va til texnologiyalarini keng qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (6 jildlik). – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.
2. G‘. Abdurahmonov, M. Yo‘ldoshev, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.



3. R.Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2005.
4. A. Hojiyev. Til va tafakkur. – Toshkent: O‘zbekiston, 1985.
5. M. Yo‘ldoshev. Semasiologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
6. N. Mahmudov, B. Yo‘ldoshev, A. Hojiev. O‘zbek tili: Nazariy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.